

## METODLARDAN FOYDALANIB O'ZBEK TILINI O'QITISH.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10866233>

**Azimova Umidaxon Abduqahharovna**

*TDIU katta o'qituvchisi.*

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada o'zbek tilini o'qitish va ushbu jarayonda metodlardan foydalanish ahamiyati haqida so'z boradi.*

### **Kalit so'zlar**

*Ona tili, talim, mulohaza, til, millat, metod, interfaol metod, o'quvchi, pedagog.*

Bugungi shiddatli davr har bir insondan bolalik chog'idan boshlab qunt bilan o'qish, ilm va hunar o'rghanishni talab etmoqda. Ana shu talab asosida mamlakatimizda o'ziga xos ta'lim tizimi yaratildi: "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" qabul qilindi. Ularda ta'limning boshqa sohalari qatori ona tili ta'limiga ham alohida o'rinnajishda ajratilgan. Ona tili o'quvchini mustaqil fikrlashga, mulohazalarni og'zaki va yozma ravishda to'liq bayon qilishga o'rgatadi. O'quvchining savodxonlik darajasini, uning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni ona tilidan hosil qilingan bilim va malakalari asosiga quriladi. Ma'lumki, har bir milliy til o'zida moddiy olamni aynan, adyekvat aks ettirishdan tashqari ruhiy olamni, qayg'u-alamlari-yu shodliklarini ham o'rinda tugal ifodalaydi. Insonda har bir narsaga nisbatan o'z munosabatini bildirish imkoniyati bor va bu imkoniyat har gal tilning muayyan shakllari orqali yuzaga chiqariladi.

Til millatimizning borlig'i, qalbimizning quyoshidir. Til adabiyotni yashnatadigan, millatning ruhiy boyligini oshiradigan ijtimoiy hodisadir. Til yashasa millat ham, adabiyot ham yashaydi. Har qanday tilni o'rghanish uchun avval shu tildagi so'zlarni bilib olish kerak bo'ladi. Buning uchun esa shu tildagi gap tuzish, so'zlarni bog'lash, qonun qoidalarni bilish kerak. Tildagi tovushlar talaffuzini yaxshi o'zlashtirib, so'zlarni to'g'ri aytish ham til o'rghanishda juda muhimdir. Ona tilim menga g'urur va iftixor tuyg'usini bag'ishlaydi. Xalqlar o'rtasidagi birlik, ahillik hurmat tilni bilishdan boshlanadi. Til bilan ko'ngilni doimo bir tutish kerak. Chunki har bir millatning tili yaxshi insonlar qatoridan suv ichib turadi. O'zbek tilining imkoniyatlari shu qadar kengki unda nasr va nazm uchun kerakli bo'lgan go'zal va nafis uslublarni topish mumkin. Tilga bo'lgan muhabbat tuyg'usi ona suti bilan qonga kiradi. Tilimiz bizning ruhiy boyligimiz,

ma'naviy borligimizdir. Millatni yashnatib, uni dunyoga tanitadigan asosiy vosita til desak adashmagan bo'lamiz. Tilga bo'lgan muhabbat tuyg'usi har bir insonning qalbida josh urib to'lqinlanib turmog'i lozim.

Ona tili o'quvchini mustaqil fikrlashga, mulohazalarni og'zaki va yozma ravishda to'liq bayon qilishga o'rgatadi. O'quvchining savodxonlik darajasini, uning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni ona tilidan hosil qilingan bilim va malakalari asosiga quriladi. Ma'lumki, har bir milliy til o'zida moddiy olamni aynan, adyekvat aks ettirishdan tashqari ruhiy olamni, qayg'u-alamlari-yu shodliklarini ham o'rinda tugal ifodalaydi. Insonda har bir narsaga nisbatan o'z munosabatini bildirish imkoniyati bor va bu imkoniyat har gal tilning muayyan shakllari orqali yuzaga chiqariladi. Tilning o'ziga xos nafosatini o'quvchilarga yetkazish, his qildirish, sezish va undan oqilona foydalanish maqsadida hozirda ona tili ta'limida an'anaviy usullardan tashqari zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanilmoqda. Keyingi yillarda breynrayting, breynstorming, aqliy hujum, bumerang, blits-so'rov, klaster, keysstadi, germanektiv suhbat kabi turli tuman metodlar paydo bo'ldi. Shunday usullardan biri kakografiyadir.

Har qanday milliy til o'zida shu tilda so'zlovchi xalqning estetik, axloqiy-badiiy va falsafiy, diniy-etnografik, tarixiy va ijtimoiy, mafkuraviy va ma'naviy qarashlarini, ular haqidagi tushunchalar, tasavvurlar, kategoriylar, mushohadalarni o'zida ifoda etadi hamda buyuk merosni avloddan avlodga olib o'tuvchi, ularni asrovchi va saqlovchi ma'naviy qurolga, xazinaga aylanadi. Shu sababli ham tilni shunchaki aloqa quroli deb bilish va baholash mantiqqa mutlaqo to'g'ri emas. O'zbek tili - o'zbek xalqining milliy tili. Unda o'zbek xalqining o'zligi, tabiat, saviyasi, tafakkur tarzi o'z tajassumini topar ekan, demak, mazkur tilni asrab-avaylash, uning nufuzini, obro'-mavqeyini ko'tarish shu tilda so'zlovchi har bir shaxsnning insoniy burchi va huquqidir.

Bugungi ta'lim jarayoni vaqtida interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv darslari jarayoni mobaynida foydalanishga bo'lgan intilish, e'tibor kundan - kunga ortib bormoqda. O'qituvchi ushbu jarayonda o'quvchining shaxsiy takomillanishi, rivojlanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga muhit yaratadi va shuning bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funktsiyasini ham bajaradi. Innovasion texnologiyalar ta'lim sifati va samaradorligini yanada takomillashtirib, ta'lim jarayonining markaziga o'quvchi va talabalarning o'quv bilish faoliyatini oshirishga yordam beradi, ta'lim jarayoni yaxlitligini ta'minlaydi. O'quvchi faoliyatining yuqori darajadagi ko'rsatkichi, o'quv-bilish faoliyatini tashkil qilish, iroda va faoliyatning o'quvchi ongingin predmetiga aylanishdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun, dastlab,

ta'lrim beruvchi maqsadga eltuvchi texnologiyalarni tanlay bilishi, o'quv tarbiyaviy jarayon yaxlitligini ta'minlashi zarur. O'qituvchi dars vaqtida boshqa ma'lumotni taqdim qilish bilan bir qatorda internet ma'lumotlari, multimedia dasturlari, jadvallar va shunga o'xshash mavzuga doir qo'shimcha ma'lumotlarni ko'rsatib o'tsa, bu nafaqat o'quvchilarining darsga bo'lgan intilishini oshiradi, balki o'quvchilarining erkin o'qishini talab darajasida rivojlantirishiga, mavzuni imkon darajasida to'la o'zlashtirishiga ham yordam beradi. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash natijasida o'quvchilarining erkin fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z g'oyasini bayon etish, uni asoslangan tarzda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish malakalari takomillashib, shakllanib boradi.

O'zbek tili o'qitish metodikasining asosiy maqsadi til imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinali va unumli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy - ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, o'quvchilarda milliy istiqlol g'oyasini shakllantirish va talaba shaxsini ma'naviy boyitishdan iborat. Til o'qitish metodikasining asosiy vazifasi talabalarni erkin, ijodiy, mustaqil fikrlarini og'zaki va yozma shaklda, adabiy til me'yorlari asosida to'g'ri ifodalay oladigan, bir ma'noni turli holatlarda berish ko'nikmasi shakllangan yetuk murabbiylarni tarbiyalab yetkazishdir.

O'zbek tilining me'yorlari mukammal shakllanganligi o'zbek xalqi madaniyatining ulkan yutug'idir. Mazkur tilni yuksak darajada asrab-avaylash maqsadga muvofiq. Millatimizning millatligini ko'rsatuvchi, "borligi, birligi, va butunligidan iborat boqiy baxtining bukilmas taxti" hisoblanuvchi raso va ravon tilimizning buguni va ertasi uchun har birimiz mas'ulmiz. Xullas, tilning rivojini ta'minlash, avvalo, jamiyatda til haqidagi tushunchalarning barqarorligiga, til egalarining beba hoyligga hurmat-ehtiromiga bog'liq. O'zbek abadiy tili-har qaysi xalq va millat ma'naviyatida ulkan ahamiyat kasb etadigan, uning ruhiy olamini moddiy shaklda yuzaga chiqarish va umumbashariy taraqqiyot uchun xizmat qildirish, el-yurtni birlashtirish, o'zlikni anglashda muhim vosita bo'ladigan buyuk ijtimoiy hodisa. Adabiy til umumxalq tilining sayqallangan, lekin, fonetik va grammatik juhatdan shu xalq shevalaridagi eng yaxshi xususiyatlarni o'zida mujassam etib, sayqallangan, hamma uchun tushunarli va ma'qul me'yorga solingan umummiliy muloqot vositasidir. Tarix va taraqqiyot jarayonida adabiy til o'zgarib, takomillashib boradi. Masalan, Alisher Navoiy davridagi o'zbek adabiy tili hozirgi zamon o'zbek adabiy tilidan farq qiladi. Istiqlol davrida adabiy tilning ma'naviy hayotimizdagi o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqidagi" gi qonuni " O'zbek tilining yangi qonunlari" -To'plam 1998, 20-30 bet.
2. Shodmonov E., Rafiev A., G'oyipov "O'zbek tili" (darslik) 1995.
3. Rasulov R., Mirazizov A. "O'zbek tili". 2006.
4. Shayxislamov, N. (2020). Когнитив тишлинуосликда концепт: "Туй" концепти ва унинг универсал табиати. O'zbekistonda innovatsion ilmiy tadqiqotlar va metodlar, 54-60.
5. Azizzo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. 2022 yil.